

ISAJON SULTONNING “OZOD” ROMANIDAGI OBRAZLILIK

*Ergasheva Zilola Dilshod qizi**Guliston davlat universiteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada I.Sultonning “Ozod ” asari bilan bog‘liq yangicha talqinlar tahlilga tortildi. Asarda modern adabiyotning mumtoz adabiyot bilan uyg‘unlashuvi, bugungi kunning tarix bilan bog‘lanishi, tasavvufiy qarashlarning ustunligi, zohiriy ko‘rinishlarning botinda akslanishi va hikmatlar olami haqida mulohazalar yuritildi, asardagi obrazlarga baho berildi.

Kalit so‘zlar: Modern adabiyot, obrazlilik, ma’nolar qatlami, estetik ideal.

Isajon Sultonning “Ozod” romani o‘zbek romanchiligiga yangicha ruh, kayfiyat olib kirdi. Roman modern adabiyotning namunasi bo‘lib, o‘z mazmuni bilan boshqa romanlardan tubdan farq qiladi. Asarda ramziylik juda ko‘p. “Hech narsa ko‘ringani kabi emasdir”.

Modern adabiyotda tassavvur va xayolot parvozi cheksiz. Bu romanda reallik bilan tassavvur uyg‘unligi bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi. Hodisalar zahirida ramziy qulflarni ochish orqali asarning g‘oyaviy maqsadi yoritiladi.

Qahramonning turli holatlarda sinovlardan o‘tishi, aql-idrokiga tayanib, balolardan omon qolishi, nihoyat, maqsadga yetish jarayoni tizimli tarzda ifodalanadi. Maqsad sari bosilgan yo‘l o‘tib borayotgan umrdir. Tanganing ikki tomoni bo‘lganidek, inson umrida ham yaxshilik va yomonlik bor. Umr yo‘li davomida odamzodni harakatga keltiruvchi omil ehtiyojdir. Ehtiyoj ramzi sifatida “baxt lolasi” keltirilgan.

Ozodning mashaqqat chekib manzilga yetib borishi, baxt lolasiga erishishi, bu yo‘lda ruhan poklanishi, yomon illatlardan ozod bo‘lishiga ishoradir.

I.Sulton “Ozod” romanida ilgari surilayotgan g‘oyani inson o‘z-o‘zini anglash yo‘lidagi manzil orqali noan‘anaviy tarzda kitobxonga taqdim etadi.

Asarda Uchyong‘oq, Iskandar devori, Tuz cho‘li kabi noreal makonlar tasviri kabi noan‘anaviy ifoda usullaridan foydalaniladi. Qaqragan giyoh qurg‘oqchilikning aksi, qiyshiq imorat uquvsiz ustani aks ettiradi.

Asar kompozitsiyasi Ozodning Oydin qizga baxt lolasini olib kelishi uchun safarga chiqishidan boshlanadi. Qahramon zimmasidagi vazifa kechga qadar lolani olib kelish: “Tushgacha yetib boraman, cho‘qqilarga chiqib, tushgunimcha yana biroz vaqt o‘tsa, shomgacha izimga qaytsan kerak”.¹ Yo‘l-umr.Shom-umrning poyoni, lola-farovon hayot. Kimki, lolaga yetsa, uning hayoti baxtga to‘ladi.

¹.Iajon Sulton. Ozod.-T.Sharq,2011.202-bet.

Nima uchun baxt guli sifatida muallif aynan lolani tanladi? Atirgulni emas. Sababi atirgulni hamma ham uzib olishi mumkin. Lekin lola esa choqqilarda o'sadi. Shuning uchun lolaning qadri baland. Qiyinchiliksz kelgan ne'matning qadri yo'q. Shu sababli insonlar baxt lolasiga ixlosmand edilar.

Asarda shamol obrazi boshidan oxirigacha faol qatnashgan. Ma'nolarni anglashda shamolning hissasi beqiyos. Shamol romanda yo'l boshlovchi qiyofasida namoyon bo'ladi.

Ozod angelaydiki, baxt atalgan lolaning o'zi baxtga mushtoq. Baxtni har kim har xil tushunadi. Kingadir sog'lik baxt, boshqaga boylik. Baxt aslida insonning o'zi, borligi, salomatligi. Inson har doim ham buni angamaydi. Barcha mavjudodlar ichida eng oliy maqomga egaligini unutib qo'yadi. Romanda ramzlarga o'ralgan Dilorom, Oydingiz obrazlari yetakchi. Sujetdagi asosiy tugun ular orqali beriladi. Ozoddagi teran fikr, aql, musaffo qalb komil inson qiyofasidir.

I.Sultonning "Ozod" romanida leksik vositalar masalasi personaj va mavzularning teranligi va nozikligini anglashda muhim ahamiyatga ega. I.Sulton taniqli o'zbek muallifi bo'lgani uchun o'z qahramonlarining madaniy, hissiy va psixologik holatini aks ettirishi uchun boy va rang-barang leksik tanlovlardan foydalanadi.

"Ozod" romanida birinchi aksdagi "shamol" bo'limidagi gaplarni misol qilaman: "shu tobda ko'kda oq bulutlar suzib bormoqda edi. Yuksaklarning shamoli ularni suruv-suruv haydab borar, birozdan keyin shakli o'zgarib, shiddat bilan oldinga intilayotgan yosh toylar to'dasi shaklini olmoqda edi. Samoviy bu otlarning uzun yo'llari shamolda hilpirab, adoqsiz tiniq kengliklarda rohatlanib chopishayotgandek tuyulardi".²

Yuqoridagi gapda ko'k so'zi shakldosh so'z bo'lib qo'llanilgan. Ko'k, ya'ni osmon ma'nosida kelgan. Bu asarda leksik resurslar juda ko'p.

"Ozod" romanida nutq masalasi keng qo'llanilgan. Nutq masalasi muallif, roviy, personaj nutqlaridan iborat.

Romandagi muallif nutqi: "Qishloqda odatiy hayot davom etmoqda. Har yer, har yerdan ko'kimtir tutun ko'kka o'rlar, qiy-chuv, chaqaloqlar yig'isi eshitilardi. Kimdir tandirgami, o'choqqami o't yoqdi. Qaytadir qo'ylar ba'radi; o'n –o'n ikki yoshlar chamasidagi bolakay bir to'da qo'yni o'ylatgani haydab keta boshladi".³

"Ozod" romanida bir qisqa hikoyada uzumzor egasi Ozod ismli bola, ya'ni personajga Uchyong'oqdagi xavf-xatar haqida o'tmishda bolgan va hozrgi kunga kelib, bir ertakni gapirib beradi.

² Isajon Sulton Ozod-T.Sharq 2011. 6-bet.

³ Isajon Sulton Ozod T.Sharq 2011.4- bet.

Roviy nutqida hikoyachi tomonidan asarga bog'liq mazmun jihatidan mos keladigan hikoya keltiriladi.

Asardagi personaj nutqlari. Personaj (lot. Persona- shaxs)-badiiy adabiyotda muallif tomonidan tasvir etilgan shaxs.

- Xormang
- Bor bo'ling , o'g'lim
- Imoratga tosh kesyapsizmi?
- To'g'ri aytasan. Anavi yerga uchta ayri-ayri uy solishim kerak. Hali bittasining devorini bitkaza olmadim. O'g'illardan uchtasini ham uylab-joylab olsam, keyin bemalol oyog'imni uzatarmidim.

Ozod personaji romandagi bir so'zli, o'z maqsadidan qaytmaydigan obraz hisoblanadi. Romanning bosh qahramoni Ozod bo'lgani, boshdan oxirigacha qatnashgani sababli "Ozod" nomini olgan roman. Sarlavhaning o'zi ham ramziydir.

Nutq masalalarida emotsional-ekspressiv so'zlardan mohirona foydalanilgan. I.Sultonning "Ozod" romanini barcha kitobxonlarga mutolaa etishlarini tavsiya etaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyot shunoslik asoslari.-Toshkent. O'zbekiston, 2002. 470-bet.
2. Isajon Sulton. Ozod. –T.,Sharq, 2011. 202- bet.
2. Isajon Sulton.Ozod. –T.Sharq. 2011. 6- bet.
3. Isajon Sulton.Ozod.—T.Sharq. 2011. 4- bet.
4. <https://cyberleninka.ru>